




O'zbekiston Respublikasi **Markaziy banki**

Markaziy bank asosiy stavkasi
yillik 14 foiz darajasida
o'zgarishsiz qoldirildi

Matbuot anjumani
2025-yil 11-sentabr




Yillik umumiy inflyatsiya darajasi avgust oyida biroz pasayib, 8,8 foizni tashkil etdi




- Bazaviy inflyatsiya darajasi pasayishda davom etib avgust oyida yillik **7,6 foizni** tashkil etdi.

Oziq-ovqat va xizmatlar bazaviy inflyatsiya ko'rsatkichlari yuqori shakllanishi iqtisodiyotda iste'mol talabi faol shakllanayotganini ifodalamoqda


Asosiy guruhlar narxlarining yillik oshishi
(foizda)





Umumiy inflyatsiya dekompozitsiyasi
(foiz bandda)



Oziq-ovqat mahsulotlari guruhi inflyatsiyasining o'suvchi dinamikasi saqlanib qolib, avgustda yillik **6,7** foizga teng bo'ldi



Aholi va tadbirkorlar tomonidan sezilgan inflyatsiya, inflyatsion kutilmalar va ularning omillari




AHOLI	2024				2025							
	sen	okt	noy	dek	yan	feb	mar	apr	may	iyun	iyul	avg
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	45	47	51	56	57	63	59	59	57	50	51	48
Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi	47	46	51	57	50	52	48	47	49	45	45	41
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	39	31	28	28	22	23	20	18	22	35	34	31
Transport xarajatlarining oshishi	28	26	30	35	30	31	28	29	32	30	27	26
Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi	25	24	26	26	26	28	28	26	25	22	24	26
Valyuta kursining o'zgarishi	50	51	51	55	46	41	39	38	37	27	30	24
Monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishi	29	28	31	33	25	32	26	26	26	24	24	22

TADBIRKORLAR	2024				2025							
	sen	okt	noy	dek	yan	feb	mar	apr	may	iyun	iyul	avg
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	46	42	49	52	54	58	52	55	54	47	47	45
Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi	44	42	48	49	49	50	45	46	48	43	42	40
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	38	30	29	25	26	22	23	23	24	33	34	33
Transport xarajatlarining oshishi	31	29	32	34	32	34	31	31	37	32	31	31
Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi	51	50	51	52	51	43	43	43	40	31	31	25
Valyuta kursining o'zgarishi	27	25	25	25	25	27	25	27	28	25	25	24
Monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishi	27	23	25	27	24	27	26	27	27	25	26	24

Iste'mol savati tarkibidagi asosiy 30 ta tovar va xizmatlar inflyatsiyasi dinamikasi


foizda




** Go'sht, sut, tuxum, bug'doy unlari, o'simlik yog'lari, shakar, guruch, kartoshka, sabzi, piyoz, pomidor, olma, yonilg'ilar, dori vositalari, tozalash vositalari, kommunal xizmatlar.

Iqtisodiy o'sish 2025-yil I yarim yillikda 7,2 foizni tashkil etdi

YalM va uning komponentlari o'sishi,
kumulyativ, foizda




YalM real o'sishi dekompozitsiyasi,
kumulyativ, foizda




Ko'chmas mulk bozoridagi faollik hamda savdo aylanmasi va savdo tushumlari o'zgarishi

Ko'chmas mulk bozorida bitimlar
soni, ming dona



Savdo va pullik xizmatlardan tushumlar
o'zgarishi, kumulyativ, foizda




2025 yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan:


- Ko'chmas mulk bozorida bitimlar soni **10,7 foizga** oshdi;
- Savdo va pullik xizmatlardan tushumlar hajmi **24,5 foizga** oshdi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning real o'sishi



To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, mln dollarda




Birinchi yarim yillikda:


- **Markazlashmagan investitsiyalar** hajmi **6,6 foizga** oshdi;
- **To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar** hajmi **37 foizga** oshdi.

Kreditlar dinamikasi

Iqtisodiyotga ajratilgan
kreditlar, trln so'mda




Kredit qo'yilmalari qoldig'i,
yillik foizda




- 2025-yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiyotga **ajratilgan kreditlar** hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **40 foizga** oshib, **249 trln** so'mni tashkil etdi.
- 2025-yil 1-sentyabr holatiga **iqtisodiyotga ajratilgan jami kredit qo'yilmalari qoldig'ining** yillik o'sishi **15,6 foizni** tashkil etdi va **627 trln** so'mga yetdi.

Global iqtisodiy o'sish va inflyatsiya prognozlari

Global iqtisodiy o'sish*, foizda




Global inflyatsiya, foizda



- Xalqaro valyuta jamg'armasi o'zining iyul oyidagi yangilangan prognozida kelgusi ikki yil uchun **global o'sishni** savdo kelishuvlari va noaniqliklarning nisbatan pasaygani fonida **biroz oshirdi**. O'z navbatida, yuqori savdo bojlarining qator davlatlar uchun kelishuvlar doirasida pasaytirilishi global inflyatsiyaga joriy yilda ijobiy ta'sir qilishi kutilmoqda.


Eksport dinamikasi

kumulyativ, foizda



Transchegaraviy pul o'tkazmalari


mln dollarda



- **Pul o'tkazmalari** hajmi joriy yil boshidan **12,1 mlrd dollarga** yetdi (23 foizlik o'sish).
- Aholining **valyuta sotuvi va xaridi** o'rtasidagi ijobiy tafovut yanvar-avgust oylarida **5,6 mlrd dollarni** tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,4 barobarga** oshdi.

Real samarali almashuv kursi


2019-yil sentabr = 100%



- Avgust oyida so'mning real samarali almashuv kursi yil boshiga nisbatan qadrsizlanishi **3,9 foizni** tashkil qildi.

Depozitlar qoldig'ining yillik o'sishi


foizda




- 2025-yil 1-sentyabr holatiga bank tizimidagi jami depozitlar qoldig'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan **34 foizga** o'sib, **262,6 trln** so'mni tashkil etdi.
- Aholining milliy valyutadagi **muddatli depozitlari** qoldig'i **45 foizga** oshib, **67 trln** so'mga yetdi.

Depozitlar bo'yicha foiz stavkalari

Depozitlar bo'yicha
nominal foiz stavkalari, foizda




Depozitlar bo'yicha
real foiz stavkalari, foizda




- 2025-yil iyul oyida aholining milliy valyutadagi muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi **21,4 foizni**, yuridik shaxslarning depozitlari bo'yicha esa **16,9 foizni** tashkil etdi.
- Inflyatsion kutilmalarni inobatga olganda depozitlarning real foiz stavkalari aholida **7,6 foizga** va yuridik shaxslarda **4,3 foizga** teng bo'ldi.

Banklararo pul bozorlaridagi faollik va shakllangan foiz stavkalar

**UZONIA benchmark
stavkasi dinamikasi, foizda**



**Pul bozoridagi muddatlar kesimida
foiz stavkalar, foizda**



- **UZONIA** benchmark foiz stavkasi yanvar-avgust oylarida foiz koridori doirasida shakllandi va avgust oyida o'rtacha **13,2 foizni** tashkil etdi.